

“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINI METODIK TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TALABALARNING IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Teshayev Azizbek To‘ynor o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti, Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida doktoranti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.046>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining mazmun-mohiyati, zamonaviy yondashuvlar asosida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning dolzarbligi, talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish jarayonida tarkib toptirish usullari, “O‘zbekiston tarixi” asosida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda ularning tanqidiy fikrlash, fuqarolik faolligi va axloqiy ongning tarbiyalovchi samarali metodikalardan foydalanishning muhim ahamiyatga egaligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “O‘zbekiston tarixi” fani, iftixor, g‘urur tuyg‘usi, tarixdan saboq olish, tarix ilmi, tarixiy tafakkur, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, tarixiy-madaniy meros, milliy o‘zlikni anglash, yuksak ma‘naviyat, tarixiy an‘ana, interfaol ta‘lim, jamoatchilik, fanlararo yondashuv, raqamli vositalar, manbalar, axloqiy mulohaza, loyihaviy ta‘lim.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕТОДИЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНА»

Тешаев Азизбек Туйнор углы

Бухарский государственный университет, Докторант кафедры методики начального образования

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие компетенции, сущность общественно активной гражданской компетенции, актуальность совершенствования методики преподавания исторической науки Узбекистана на основе современных подходов, методы формирования общественно активной гражданской компетенции студентов в процессе преподавания исторического предмета Узбекистана, критическое мышление студентов в развитии социально активной гражданской компетенции на основе «Истории Узбекистана», использование эффективных методик воспитания гражданской активности и нравственного сознания.

Ключевые слова: предмет «История Узбекистана», чувство гордости, извлекать уроки из истории, исторической науки, исторического мышления, общественно активной гражданской компетенции, историко-культурного наследия, национального самосознания, высокой духовности, исторической истории, интерактивного образования, общественности, междисциплинарного подхода, цифровые средства, источники, моральное мышление, проектное образование.

DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CIVIL COMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF THE SUBJECT “HISTORY OF UZBEKISTAN”

Teshayev Azizbek Toynor Oglu

Bukhara State University Doctoral student of the Department of primary education methodology

Abstract: This article discusses the concept of competence, the essence of socially active civic competence, the relevance of improving the methodology for teaching historical science of Uzbekistan on the basis of modern approaches, methods of forming socially active civic competence of students in the process of teaching a historical subject of Uzbekistan, the critical thinking of students in the development of socially active civic competence based on the «History of Uzbekistan,» the use of effective methods of

education of civic activity and moral consciousness.

Key words: subject «History of Uzbekistan,» a sense of pride, pride, to learn lessons from history, historical science, historical thinking, socially active civic competence, historical and cultural heritage, national identity, high spirituality, historical history, interactive education, public, interdisciplinary approach, digital means, sources, moral thinking, project education.

Kirish. Dunyo hamjamiyatida fan va innovatsion faoliyatning yutuqlaridan samarali, ijtimoiy jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Fransiya, Rossiya, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda yuqori darajadagi kasbiy va shaxsiy kompetentlikka ega raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish orqali ularni jamiyatda o'z o'rnini topish, o'z-o'zini faol fuqaro sifatida rivojlantirish masalasiga asosiy yo'nalishi sifatida qaralib, ta'limda innovatsiyalarni, shu jumladan, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi ta'minlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida Oliy ta'lim jarayonlarida talabalarda nazariy bilimlardan kasbiy sohalarida muvaffaqiyatli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, o'z tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta'lim muhitini joriy qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi.

Jahonda bo'lajak mutaxassislarini innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy pedagogik markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda globollashuv sharoitida tarix fanini o'qitishga qo'yilgan davlat talablarida belgilangan talabalarda ijtimoiy jamiyatda shaxs sifatida o'z o'rnini, mavqeiga egalik, qadriyatli yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida tarix fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali ularni ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish, innovatsion ta'lim muhitida Milliy va xalqaro ta'lim dasturlaridan integrativ tarzda foydalanib, mazkur kompetentlik ko'nikmasining rivojlanganlik darajasini baholash mezonlarini pedagogik jihatdan ilmiy tadbiiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Respublikamizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida kreativ fikrlaydigan, milliy g'oyalarga sodiq, ma'nan va jismonan sog'lom, shaxsiy sifatlarga ega, fuqarolik burch va huquqlarini biladigan, unga rioya qilish, kasbiy mavqeining o'sishiga intilish bilan jamiyatga xizmat qilish kabi hayotiy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni qo'llashga qaratilgan islohotlar natijasida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ularning mustaqil shaxs sifatida o'z harakatlari uchun javobgarlik, erkin va ijodiy fikrga egalik, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik hamda irodaviylik sifatlarini tarkib toptirishni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan raqobatbardosh ta'lim muhitini tashkil etishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 23-sentabrdagi 75 sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'htalar ekan: «mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit - qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda». O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqiraman» - degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda[1]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida yoshlarimiz faolligi, tashabbuskorligi va ularning ilmi-ijodiy g'oyalarini qo'llab quvvatlash ishlarini olib borilishi jamiyat ertangi kuni farovonligidan dalolat beradi. Shuning uchun, oliy ta'lim jarayonida O'zbekiston tarixi fanini o'qitish asosida talabalarining ijtimoiy fol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish yoshlarda adolat, huquqiy tenglik, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida eng muhim tashabbuskor omil hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik, xalqparvarlik, komil inson g'oyalari, jamiyat taraqqiyotida adolat haqidagi qarashlariga oid mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik asosi sifatida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning pedagogik

ta'limotlarida o'z aksini topgan.

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy - falsafiy masalalari A.Begmatov, A.Mavrulov, G.Tulenova, J.Tulenov, M.Kahharova, E.Yusupov va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan. Talaba-yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik masalalari yuzasidan pedagog va psixolog olimlardan B.Adizov, B.Raximov, G.J.Tulenovalar, D.Ro'ziyeva, D.Sharipova, Z.Ismailova, Q.Q.Quranboyev, M.Quronov, M.Maxmudova, N.A.Muslimov, N.Ortiqov, N.Egamberdiyeva, O.Jamoldinova, O.Musurmonova, R.Djurayev, O'.Q.Tolipov, U.Mahkamov, X.I.Ibragimov, B.Xodjayev, Sh.Mardonov, Sh.Sharipov, Sh.Akramova, D.Mamatqulov, Sh.Shodmonovalarlarning ilmiy izlanishlarida talabalarda g'oyaviy - mafkuraviy kompetentlikni shakllantirishning nazariy masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Mazkur muammo yuzasidan xorijlik olimlardan A.Amutio, A.Smit, A.Yolanda, K.Franco, L.Breeman, R.Sears, R.O.Rene tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Turli soha olimlari tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish muammosi yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan O'zbekiston tarixi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish asosida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida tadqiq etilmagan.

Mavzu muhokamasi.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitish metodikasi fan dasturi mazmunini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakasini motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida takomillashtirish orqali talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganish talabalarni ajdodlarimizning ming yillik madaniy-ma'naviy merosi, jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtiribgina qolmasdan, buyuk ajdodlarimiz nomlarini hurmat bilan tilga olish va ular bilan faxrlanish, milliy iftixor va g'urur tuyg'usini singdirishda ham muhim o'rin tutib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim.

"O'zbekiston tarixi" fanini o'rganish orqali talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ularga nafaqat tarixiy bilimlar beradigan, balki tanqidiy fikrlash, fuqarolik faolligi va axloqiy ongni tarbiyalovchi samarali metodikalarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon tarkibiga O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini oshirish mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida 2017-yil 30-iyunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Mazkur Jamoatchilik kengashida bir qator asosiy vazifalar ijrosini ta'minlash belgilab berildi.

Birinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlarini muvofiqlashtirish;

Ikkinchidan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning "o'zbek modeli" mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamlil ishlarini, hozirgi dunyoda O'zbekistonning roli va o'rnini chuqur o'rganish va yaqqol ochib berish;

Uchinchidan, ilmiy, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash;

To'rtinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari monitoringini olib borish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarining sifatini

yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish;

Beshinchidan, fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko'maklashish;

Oltinchidan, O'zbekiston tarixi bo'yicha zamonaviy chet el ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hozirgi O'zbekistonning tarixiy o'tmishi, sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar to'g'risidagi xolis axborotni keng xalqaro jamoatchilikka yetkazish.

Talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik malakasini oshirish uchun O'zbekiston tarixini o'qitish metodikasini takomillashtirishda quyidagilarga asoslanish samarali natija beradi:

Birinchi, interfaol ta'lim: debatlar, rolli o'yinlar, simulatsiyalar va tarixiy jonlantirishlar kabi interfaol va tajribaviy ta'lim faoliyatini o'z ichiga olgan holda an'anaviy ma'ruzalar va darsliklardan tashqariga chiqish lozim. Bunday yondashuv o'quvchilarning tarixiy voqealar bilan faol shug'ullanishiga va o'zlarini tarixiy shaxslar o'rniga qo'yib, tarixiy ongni rivojlantirishga yordam beradi.

Darslar jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'z mohiyatiga ko'ra subektiv xususiyatiga ega, ya'ni har bir tarix fani o'qituvchisi ta'lim va tarbiya jarayonini o'z ustida ishlash, kasbiy mahoratini muntazam oshirgan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda interfaol metodlarga asoslangan darsning turli shakl va vositalaridan foydalanib tashkil etish quyidagi:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta egallanishini ta'minlash;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning ehtiyojlarga asoslangan ta'lim muhitini tashkil etish orqali o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlash zarur.

Ikkinchidan, so'rovga asoslangan ta'lim: tarixiy voqealar va ularning zamonaviy muammolarga aloqadorligini chuqurroq anglash uchun talabalarni savollar berishga, tadqiqot o'tkazishga va asosiy manbalarni tahlil qilishga undash kerak. Bu tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quvchilarga o'tmish va kelajak o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishga imkon beradi.

Uchinchi, jamoatchilik ishtiroki: tarixiy joylar, muzeylar va madaniy tadbirlarga sayohatlar kabi jamoatchilik asosidagi ta'lim tajribalarini o'quv dasturiga integratsiyalash lozim. Ushbu tadbirlar talabalarga o'zlarining madaniy merosi bilan bevosita tanishish imkonini beradi va uni saqlash va targ'ib qilish uchun g'urur va mas'uliyat hissini uyg'otadi.

To'rtinchidan, fanlararo yondashuv: tarixiy voqealarning ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatlarini o'rganish uchun uni sotsiologiya, siyosatshunoslik va antropologiya kabi boshqa fanlar bilan bog'lash kerak. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarga murakkab tarixiy jarayonlar va ularning jamiyatga ta'siri haqida yaxlit tushunchani shakllantirishga yordam beradi.

Beshinchidan, raqamli vositalar va manbalar: Tarixni o'qitish va o'rganishni yaxshilash uchun raqamli texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanish zarur. Tarix darslarini talabalar uchun yanada qiziqarli tarzda olib borish uchun multimedia taqdimotlari, interaktiv vaqt jadvallari va raqamli arxivlardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ularga turli nuqtayi nazarlar va axborot manbalarini o'rganish imkonini beradi.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda innovatsion – integratsion yondashuvlarga asoslangan usullarni qo'llash natijasida talabalar ongi va qalbiga milliy istiqloq mafkurasini singdirish, ularga o'tmish tariximiz, umumbashariy qadriyatlarimiz, avlod-ajdodlarimiz haqida puxta bilim berish, mustaqil Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirishni ko'zda tutadi.

Jamiyatimiz va uning ijtimoiy taraqqiyoti O'zbekiston tarixi fani asosini tashkil etib, shu fanning obyektini belgilanadi, uning predmeti esa o'tmishda ro'y bergan voqea-hodisalar bo'lib, ular o'zining betakrorligi bilan alohida xususiyatga ega. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda talabalar ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxlit manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan

foydalanishning ahamiyati ham o‘ziga xos o‘ringa ega.

O‘qituvchi o‘z mahorati va fanga oid bilimlarga puxta egalik ko‘nikmasi asosida talabalarga fanni o‘rgatish jaryonida shunday yutuqqa erishishi kerakki, u tomondan bayon qilingan har bir tarixiy fakt, geografik nom va shaxs hayoti, ijodi yoki faoliyati obrazli bo‘lishini ta‘minlashi shart.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda obrazlilik usulidan foydalanish talabalarning yurtimiz tarixi haqida o‘zlashtiradigan bilimlarini ilmiy va puxta bo‘lishining zarur shartlaridan biridir. Tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish omili, yoshlarni fanga va o‘z navbatida yurt tarixiga qiziqishini uyg‘otish, tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishning muhim vositasi hisoblanadi.

Tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini talabalar aktiv suratda idrok etishiga qaratilgan usullardan foydalanadi. O‘qituvchi hikoyasining mazmunan ko‘rgazmali va obrazli bo‘lishi, darslik matnidagi, tarixiy hujjatlardagi voqealar va tasviriy elementlar, badiiy adabiyot asarlari o‘quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, axloqiy mulohaza: tarixiy talqin, xotirlash bilan bog‘liq axloqiy masalalar bo‘yicha munozaralarni birlashtirish lozim. Talabalarni tarixiy ma‘lumotlardagi ba‘zi noto‘g‘ri qarashlar, stereotiplar va kamchiliklarni tanqidiy ko‘rib chiqishga va o‘z talqinlari va tasavvurlarining axloqiy oqibatlarini ko‘rib chiqishga undash zarur.

Yettinchidan, loyihaga asoslangan ta‘lim: Talabalardan tarixiy bilimlarini real dunyo kontekstida qo‘llashni va zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishni talab qiladigan loyihalarni amalga oshirish lozim. Masalan, talabalar hozirgi siyosiy qarama-qarshiliklarning tarixiy ildizlarini o‘rganishlari yoki tarixiy voqealarning madaniy o‘ziga xoslik va ijtimoiy uyg‘unlikka ta‘sirini tahlil qilishlari mumkin.

Sakkizinchidan, global istiqbol: O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganishni boshqa mintaqalar va madaniyatlar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirgan holda kengroq global kontekstda olib borish lozim. Bu talabalarga global nuqtayi nazarni rivojlantirishga, dunyo tarixining o‘zaro bog‘liqligini anglashga, madaniyatlararo tushunish va empatiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda yurtimiz yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishlarida ularning jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy faol fuqaro sifatida faollashuvi muhim o‘rin tutadi. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun mohiyati to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq yondashuvlar, turli darvlarda turlicha talqin qilingan. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ta‘limining maqsadi, doimo insonni jamiyatda faol faoliyatga, davlatning ijtimoiy – siyosiy hayotida ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishga intilish bo‘lgan. Shunga qaramay, inson hayotida davlat va jamiyatning roli turlicha talqin etilgan.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish metodikasini talabalarning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlariga asoslangan holda innovativ usullar yordamida takomillashtirish orqali: yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi – ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish;

- talabalarga ijtimoiy demokratik jamiyat qurish g‘oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta‘minlash;

- ularda millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g‘oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta‘minlash;

- ularni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish; ularni ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishi «Sen tarixni bilasanmi», «Yangi O‘zbekiston fuqarosi», «Komillik tizimi sizda mavjudmi?» kabi ta‘lim loyihalarida faol ishtirokini ta‘minlash orqali oshirib borish;

- talabalarni oliy ta‘lim muassasalaridagi, «Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish» jarayonida ularda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Talabalar oliy ta‘lim muassasasi ijtimoiy hayotida, tashabbuskor va volontyorlik guruhlar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, «Iqtidorli yoshlar» fan klublari faoliyatida jumladan, talabalar, ota-onalar kengashlari faoliyatini rivojlantirish orqali «ta‘lim muassasasi talabalari va ota-onalar» o‘rtasida faol hamkorlik muhitini yaratish orqali ko‘zlangan maqsadga yetish mumkin.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish jarayonida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda ob‘ektiv - ta‘lim muassasasining demokratik hayot tarzi, uning tarbiyaviy tizimining ochiqligi, ta‘lim va tarbiya texnologiyalari hamda sub‘ektiv - ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

va pedagoglarning shaxsiy sifatлари kabi sharoitlar orqali rivojlanadi. Ammo, talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish darajasini aniqlash mezonlarini takomillashtirish, jumladan ularda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishni baholovchi bir qator ko'rsatkichlar, ya'ni:

- inson o'z hayot faoliyati maqsadini aniq bilishi;
- fuqarolik jamiyatini qadrlashi va ahamiyatini anglashi;
- ijtimoiylashuv ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- o'z jamiyatining faol a'zosi bo'lishi;
- uning shakllanishi va rivojlanishida faol ishtirok etishi;
- sevimli kasbi va qiziqishlari bo'lishi;
- funksional kompetensiyalarni egallashi;
- shaxslararo muloqotga kira olishi;
- o'zining shaxsiy faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi natijasida kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlay olishi kabi zamonaviy talablarni kiritishni talab etadi.

Xulosa.

Yurtimizda barcha sohada inson qadriga bo'lgan e'tiborga asoslangan ijtimoiy jamiyatda yoshlarning mustaqil tarzda ijtimoiy, siyosiy qiziqishlari doirasida ularning ijtimoiy faolligi tub islohotlar negizida fuqarolik faoliyatida ishtirok etish va unda o'z o'rnini topa olishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga egalik insonning jamiyat hayotida ishtirok etishi zarurligini, jamiyatda o'z o'rnini va o'z ovozi borligini to'g'ri tushunishi va anglab yetishidir. Zero, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga ega bo'lgan har bir shaxs xususiy va umumiy tarzda atrof-muhitga nisbatan o'z munosabatini namoyon qila olish ko'nikmasi va imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston tarixi fanini zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida metodik takomillashtirish orqali fanni o'qitish natijasida, talabalarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish, ularning madaniy merosga pozitiv munosabatda bo'lish, tarixiy xotirani saqlash, o'z yurti tarixi bilan faxrlanish, uni kelajak avlodlarga yetkazishda hissa qo'shishda faol ishtirok etishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim jarayonida talabalarda faol ijtimoiy fuqarolik kompetentligini tarkib toptirish ularda ijtimoiy qadriyatlarini amalga tatbiq etishga yo'naltirilgan faoliyat tarzini egallab, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishlari uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 23 sentyabrdagi BMT 75 sessiyasidagi nulqi. 2017 y. 24 sentyabr soni
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.–Toshkent: O'zbekiston, 2018.–252-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021. -B. 288
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 30.06.2017 yildagi PQ-3105-son. <https://lex.uz/docs/-3251707>
5. G.Fuzailova. Tarix o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari. Darslik.T.-2020. -B.210.
6. A. Sagdiyev, G. Fuzailova, M. Hasanova. Tarix o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent-2008. -B.24.
7. Tojiboeva X.M. "O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi" diss. 2018 y.
8. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T., 2019 y. – 14-b.
9. Quronboev Q.Q "Talabalarining ma'naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)": Ped.f.n...diss. – T.: O'zPFITI, 2000 y.
10. Teshayev A. Tarix fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o'qitish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023/7. ISSN 2181-1709 (P) 4 bet
11. Teshayev A. Bo'lajak pedagoglarda tarix fanini o'qitish orqali milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish texnologiyalari. Golden brain. ISSN: 2181-4120 volume 1 | issue 26 | 2023